



Jizzax davlat  
Pedagogika  
universiteti

TARIX FAKULTETI



# TARIX va JAMIYAT

## JOURNAL 2023



**№5**

**HISTORY AND SOCIETY**  
**ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО**  
общественный электронный  
**ЖУРНАЛ**



## TARIX VA JAMIYAT ILMIY ELEKTRON JURNAL

---

2023-yil 5-son Ijtimoiy-gumanitar fanlar  
Tarix, falsafa, huquq, sotsiologiya, o'qitish metodikasi

---

**Bosh muharrir:** Pardayev A.H. JDPU, tarix fakulteti dekani,  
t.f.n., dotsent.

**Bosh muharrir o'rinbosari:** Aqchayev F.Sh. JDPU, t.f.b.f.d. (PhD), dotsent.

**Mas'ul kotib:** Saidov J.O. JDPU, Tarix fakulteti o'qituvchisi

### TAHRIRIYAT A'ZOLARI:

1. Sagdullayev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik
2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor
3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor
4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor
5. Choriyev S. – falsafa fanlari doktori, professor
6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor
7. Pardayev M.H. – tarix fanlari doktori, dotsent
8. G'oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
9. Yarmatov R.B. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
11. Amanullayev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dotsent
12. Toshboyev F.E. – tarix fanlari bo'yicha fan doktori (PhD), dotsent
13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, dotsent
14. Saidov M. – falsafa fanlari nomzodi, dotsent
15. G'ofurov J.I – tarix fanlari bo'yicha fan doktori (PhD), dotsent
16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
17. Valiyev A.X. – katta o'qituvchi
18. Majidov A.S. – katta o'qituvchi

**Dizayner va sahifalovchi:** Axmurodov D.Q

---

# JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI TARIX FAKULTETI

## TASHKIL TOPISHI

**Anorboyev Bunyod**  
**JDPU, Ijtimoiy-gumanitar**  
**fanlar o'qitish metodikasi (tarix)**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Jizzax davlat pedagogika universitetining Tarix fakulteti tashkil topishi va uning rivojlanish tarixi xususida muallifning xronologik tahlili berilgan.

**Kalit so'zlar:** Jizzax, Institut, Tarix fakulteti, Sharof Rashidov, Falsafa kafedrası, Tarix kafedrası.

**Abstract:** In this article, the author's chronological analysis of the establishment of the Faculty of History of Jizzakh State Pedagogical University and the history of its development is given.

**Keywords:** Jizzakh, Institute, Faculty of History, Sharof Rashidov, Department of Philosophy, Department of History.

**Аннотация:** В данной статье дан авторский хронологический анализ становления исторического факультета Джизакского государственного педагогического университета и истории его развития.

**Ключевые слова:** Джизак, институт, исторический факультет, Шароф Рашидов, кафедра философии, кафедра истории.

Hozirgi davrda dunyoda inson faoliyatining keng tarqalgan sohalaridan biri bu ta'lim sohasi hisoblanadi. Ta'limning ijtimoiy roli ortishi natijasida dunyoning aksariyat davlatlarida ta'limning barcha turlariga bo'lgan munosabat o'zgardi. Ta'lim ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning bosh, yetakchi omili sifatida qarash asosiy o'ringa chiqmoqda. Bunday e'tiborning sababi zamonaviy jamiyatning eng muhim qadriyati insonni yangi bilimlarni izlash, egallash va turli vaziyatlarda ma'lum yechimga yo'nalgan qarorlar qabul qilishga qodir bo'lishida zaruriy o'rinni egallovchi ta'lim muassasalari hisoblanadi. Shunday ekan, hozirgi davrda ta'lim muassasalari va ularning tarixiy rivojlanish bosqichlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi e'lon qilinishi munosabati bilan o'zbek xalqi tarixida milliy, tarixiy, diniy, umumiy insoniy qadriyatlarini tiklashga katta e'tibor berila boshlandi. O'zbekistonning turli hududlari qatori dastlab Ustushona keyinchalik Dizak nomlari bilan atalgan hozirgi Jizzax vohasining ta'lim sohasidagi o'rni alohida ta'kidlab o'tish lozim. Jizzax vohasida 1902-yili tashkil etilgan "Nuriddin xoji" nomi bilan mashhur madrasa butun voha aholisining ma'naviy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotining rivojida muhim o'rin tutgan. Madrasada

o'qish 1912-yilgacha ya'ni podsholik hukumati buyrug'i bilan madrasa yopib qo'yilguniga qadar davom etdi<sup>1</sup>. Ushbu holat mustamlaka hukumat tomonidan vohani ma'lum tarzda ta'limdan uzoq saqlashga urinish jarayoni hisoblanadi.

Ikkinchi jahon urushi yakunlaridan so'ng O'zbekistonning ko'plab viloyatlarida turli sohalarning rivojlanish tendensiyasi kuzatiladi. Ushbu taraqqiyot natijasida mahalliy kadrlar Respublika darajasidagi lavozimlarga ko'tarilishga erishdilar. XX asr 70-80 yillarida Jizzax viloyatida ilm-fan va ma'naviy taraqqiyotning yangi davri boshlandi. Sharof Rashidov shunday shaxslardan bo'lib, 1959-1983-yillarda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy komiteti 1-kotibi lavozimida ishlagan. Uning davrida Jizzax vohasida sanoat va qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarishni yanada tezkor rivojlantirish, mavjud yer-suv, tabiiy boylik zaxiralaridan samarali foydalanish, aholiga xizmat ko'rsatishni yaxshilash, Jizzax cho'lini o'zlashtirishni tezlashtirish maqsadida O'zbekiston Oliy Kengashining Prezidiumining 1973-yil 29-dekabrda qaroriga asosan, Sirdaryo viloyatining Jizzax, Forish, Do'stlik, Zomin, Paxtakor, Mirzacho'l, Oktyabr (Hozirgi Zafarobod) hamda Samarqand viloyatining Baxmal, G'allaorol tumanlari bazasida Jizzax viloyati tashkil topdi<sup>2</sup>.

Jizzax viloyatida aholi soning oshishi natijasida xalq maorifi tarmog'i malakali o'qituvchilarga bo'lgan talabi oshib borishi hisobga olinib, O'zbekiston maorif ministrligining 1974-yil 8-avgustda № 256 sonli buyrug'i asosida Jizzax davlat pedagogika instituti tashkil topdi.<sup>3</sup> Institut sobiq SSSR Ministrlar sovetining № 605 qaroriga asosan tashkil etilgan. Xalq deputati Sirdaryo (Hozirgi Jizzax) viloyat sovetining ijroiya komiteti 21.12.1989 yil № 451/27-sonli qaroriga muvofiq unga Abdulla Qodiriy nomi berilgan.<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 1991-yil 22-apreldagi buyrug'i bilan jumhuriyatning barcha pedagogika oliy va maxsus o'rta o'quv yurtlarida O'zbekiston tarixini o'rganish joriy etildi. Institutda ham O'zbekiston tarixi kafedrasini tashkil topib, O'zbekiston xalqlari tarixini o'rganishga e'tibor kuchaytirildi.

2001-2002 o'quv yili ma'lumotlariga ko'ra institutda 8 ta fakultet o'zbek tili va adabiyoti, tarix va huquq, pedagogika, xorijiy tillar, fizika, matematika, kimyo-biologiya, kasb ta'limi, jismoniy tarbiya hamda 5 ta bo'lim musiqa, pedagogika-psixologiya, geografiya, qozoq, sirtqi ta'lim mavjud bo'lgan. Institutda o'quv va ilmiy sohalarda 36 ta kafedra, 31 o'quv va amaliy laboratoriya, ustaxona, tajriba

---

<sup>1</sup> H.Haydarov, Q.Usmonov Jizzax tarixi (Jizzax tarixi haqida tarixiy lavha va xotiralar). Toshkent, "O'qituvchi", 2009-yil 94-bet.

<sup>2</sup> S.Nishonov, H.Haydarov Jizzaxning to'ng'ich oliy o'quv yurti. Jizzax. 1994-yil.5-bet.

<sup>3</sup> O'sha manba. 5-bet.

<sup>4</sup> <https://jspi.uz/institut/umumiy-malumotlar/>



ishlab chiqarish maydoni, profilaktoriy va sport sog'lomlashtirish muassasalari faoliyat ko'rsatgan<sup>5</sup>.

Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki davrlaridan boshlab o'zining tarixiy merosini tiklash va bu sohada yetuk kadrlarni tayyorlashni davlat siyosati darajasidagi muhim masala sifatida yondoshdi. Jamiyatda tarix sohasiga bo'lgan talab va ehtiyojning oshib borishi natijasida Jizzax vohasidagi oliy ta'lim dargohida tarix alohida fakultet miqyosida faoliyat ko'rsata boshladi. A.Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat pedagogika instituti Tarix fakulteti 1995-yilda "O'zbek tili va adabiyoti" fakulteti qoshida bo'lim sifatida tashkil etilgan. 1999-2000 o'quv yilidan boshlab Tarix bo'limi Tarix va huquq fakulteti sifatida faoliyat yurita boshlagan.

1995-yilda Tarix bo'limiga dastlab dotsent A.Botirov 1995-yildan bo'lim boshlig'i lavozimida 1999-yilgacha ishlagan. So'ngra 1999-2000 o'quv yillarida fakultet sifatida tashkil topganida dekan lavozimiga dotsent E.Xolbo'tayev tayinlandi. Tarix fakultetining dastlabki dekani lavozimida E.Xolbutayev 2006-yilgacha faoliyat olib bordi. Tarix fakultetini 2008-2009 o'quv yili davomida Ziyodulla Xolboyev, 2009-2010 o'quv yillarida dotsent B.Mirkomilov dekan sifatida ish yuritishdi. 2010-yildan boshlab dotsent Sirojxon G'oziyev dekanlik faoliyati boshladi. Ushbu ish jarayoni 2016-yilgacha davom etdi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki bu davrda fakultet miqyosida o'quv sifati, ilmiy salohiyat va talabalar yutuqlari sezilarli oshdi. 2016-2017 o'quv yillarida Tarix fakulteti dekani lavozimida professor S.Abduxoliqov ishladi. R.Yarmatov 2017-2019 yillar oralig'ida fakultetga rahbarlik qildi.

2019-yil yanvardan boshlab fakultetga dotsent A.Pardayev rahbarlik qilib kelmoqda. Fakultetda hozirgi kunda 2 ta yo'nalish bo'yicha pedagogik-kadrlar tayyorlanmoqda.

- 5110600 – Tarix va uni o'qitish metodikasi (tarix),
- 5111600 – Milliy g'oya, Ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi.

Tarix fakultetida mavjud kafedralar tarixi haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz. Falsafa kafedrasida 1987-yili sobiq ilmiy kommunizm kafedrasidan ajralib chiqib, o'z faoliyatini boshladi. Bu davrda kafedrada uch fan nomzodi ishlab, falsafa fanlari nomzodi Z.Nizomitdinov mudirlik qildi. 1992-yildan boshlab falsafa fanlari nomzodi, dotsent A.Botirov kafedraga mudirlik lavozimiga kirishdi. 1992-1993 o'quv yilida kafedra a'zolari tomonidan 8 ta ilmiy maqola va 7 ta ilmiy-uslubiy qo'llanma chop etilgan. Kafedrada 1994-yil 10 ta fan nomzodi, dotsentlar A. Botirov, M.Egamqulov, Z.Nizomitdinov, Sh.Ikromov, F.Mamatqulov, A.Xatamov, J.Norbekov, katta o'qituvchilar Sh.Ashurov, M.Turonov, o'qituvchilar

---

<sup>5</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Jizzax\\_pedagogika\\_instituti](https://uz.wikipedia.org/wiki/Jizzax_pedagogika_instituti)

Z.Bozorboyeva, P.Qulmatov, kabinet mudirasi Z.Pirnazarovalar faoliyat ko'rsatishgan. Kafedra a'zolari o'quv-tarbiyaviy ishlar bilan bir qatorda, falsafa fanining aktual muommalari buyicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bordilar. Kafedra a'zolari o'zlarining faoliyatini mustaqil O'zbekiston Respublikasining obro-u-e'tibori va qudratining oshib borishi muammolariga, Sharq musulmonlari falsafasini chuqurroq o'rganishga qaratdilar.<sup>6</sup>

Tarix fakultetining yana bir nomdor ilmiy birlashmasi O'zbekiston tarixi kafedrasini hisoblanadi. Dastlabki yillarda O'zbekiston xalqlar tarixi nomi ostida bo'lgan kafedra yuqori malakali o'qituvchi kadrlar bilan to'la ta'minlangan edi. 1992-1993 o'quv yillarida kafedrada dastlab tarix fanlari nomzodi, dotsent R. Xolmurodov kafedraga mudirlik qilib, dotsentlar R.Nurqulova, B. Mirkomilov, tarix fanlari nomzodi, katta o'qituvchi A. Boltayev, o'qituvchilar T. Umirov, I. Abdusaidov, A. Valiyev va M. Ibragimovlar talabalarga har tomonlama puxta bilim berishgan. Kafedra a'zolari o'zlarining ma'ruza va ilmiy mashg'ulotlarida O'zbekiston Respublikasi tarixi fani buyicha doktorlik va nomzodlik dissertasiyalar, monografiya hamda ilmiy izlanishlarni ham amalga oshirganlar<sup>7</sup>.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mamlakatimizning o'z mustaqilligini qo'lga natijasida ming yilliklarni qamrab oladigan haqqoniy tarixni yoritish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Jumladan, Jizzax davlat pedagogika institutida Tarix fakulteti tashkil etildi. Fakultetni hozirgi kunga qadar minglab talabalar tamomlab, o'z sohalari bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lib faoliyat yuritmoqdalar. Ayni kunda Tarix fakultetida 700 dan ziyod talaba mamlakatimizning ijtimoiy, falsafiy, ma'naviy va tarixiy taraqqiyotining o'ziga xos tomonlarini 60 dan ziyod professor-o'qituvchilar tomonidan berilayotgan darslar orqali puxta o'zlashtirmoqdalar.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. H.Haydarov, Q.Usmonov Jizzax tarixi (Jizzax tarixi haqida tarixiy lavha va xotiralar). Toshkent, "O'qituvchi", 2009-yil 94-bet.
2. S.Nishonov, H.Haydarov Jizzaxning to'ng'ich oliy o'quv yurti. Jizzax. 1994-yil.5-bet.
3. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Jizzax\\_pedagogika\\_instituti](https://uz.wikipedia.org/wiki/Jizzax_pedagogika_instituti)

---

<sup>6</sup> S.Nishonov, H.Haydarov Jizzaxning to'ng'ich oliy o'quv yurti. Jizzax. 1994-yil. 40-bet

<sup>7</sup> O'sha manba. 39-bet